



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### ENDI UALAR HAM SO'ZLASHADI!

Beg'amova Sadoqat

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti 2- bosqich talabasi

#### Anotatsiya:

Maqolada ko'zi ojiz bolalarning chet tillarini puxta o'zlashtirish uchun yaratilgan kitobning darslik sifatida joriy etilishi, hamda bu kitobning qo'shimcha imkoniyatlari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** minimonika, Braille, reabilitatsiya, lug'at, monomarkaz, transkriptsiya.

Ya'ni ingliz tilida. Ko'zi ojizlar muammolari haqida qayerda va qachon gapirilmasin, Braille alifbosidagi kitob-u darsliklarning yo'qligi va yetishmasligi bosh mavzu bo'ladi. Nashr etilajak kitob ham ana shu talabdan kelib chiqib yaratilgan bo'lib, imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz) bolalarning ingliz tilini puxta o'zlashtirishda yordam berishni ko'zda tutadi. Qo'llanmaning o'ziga xos yutuqlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: Kitobga turli qiziqarli mashqlarning kiritilganligi o'quvchini tilni oson va puxta o'zlashtirishini ta'minlaydi; Lug'atning Braille yozuvida chop etilishi o'quvchiga so'zlarni o'z qo'li bilan o'qish va to'g'ri yozish, kitobga ilova qilinadigan audio disk orqali oson tinglab tushunishga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar uchun darsliklar chop etish haligacha muammoligicha qolmoqda. Oldimizdag'i yana bir muammo darsliklar ularning imkoniyatidan kelib chiqqan holda chop etilayabdimi? Ularni qiziqtira olish darajasidami? Statistikaga olib qaraydigan bo'lsak, ko'zi ojiz odamlar dunyoda 39millionni tashkil etadi. Yana 200 million odam esa qisman ko'ra olmaydi. Ilg'or texnologiyalar ular uchun yangi imkoniyatlar taklif qilmoqda.

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



2020-yilning dekabrida O'zbekistonda "Ko'ngil ko'zi "loyihasi doirasida maktab internatlarining tarbiyalanuvchilari maxsus tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.Loyiha muallifi Milliy mass-mediani qo'llab- quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi vasiylik Kengashi raisi o'rinnbosari Saida Mirziyoyeva hisoblanadi.Loyiha doirasida Braille shriftida darsliklar nashr etish yo'lga qo'yildi,ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi bolalar ehtiyojlariga ixtisoslashtirilgan kompyuter markazi yaratildi,barcha maktab- internatlarining texnik bazasi rivojlantirildi va qo'yilgan maqsadga erishish uchun boshqa kichik loyihalar amalga oshirildi.Ko'zi ojizlarning chet tillarini puxta o'rganish uchun darsliklarini yangicha metodlardan foydalanib yaratishimiz lozim.Biz mavjud muammoning yechimi sifatida ingliz tilining boshlang'ich intermedia darsliklarini ishlab chiqish ustida ish olib bormoqdamiz.Bu darslikning boshqalardan farqi nimada?Birinchidan, darslik ikki qismidan iborat bo'lib,lug'at kitobi hamda so'zlashuv kitobidan iborat.Bundan tashqari kitobning disk hamda dastur ko'rinishi mavjud.Biz kitobni "Ilm bu -nur" deb nomladik.Bilim olishni istagan qalblarga ilm nuri ila kirishni maqsad qildik.Unda butunjahonda ommalashib borayotgan metodlardan biri "minimonika "metodidan foydalanilgan.Lug'at kitobi 800 ta so'zni o'z ichiga oladi. Bu ularning fiziologik holatidan kelib chiqqan holda yaratilgan bo'lib, bu kitobdan tez va oson so'zlashishni o'rganishlari mumkin.Yana bir qulaylik tomoni u Braille, ingliz ,hamda O'zbek tillarida berib boriladi.Uning disk va dastur varianti ham mavjud bo'lib, hozirgi kunda ular ustida ishlanmoqda.Minimonika metodi bolani o'ylashga ,erkin fikrlashga undovchi metod bo'lib,boshqa metodlardan farqi -bola uchun kam vaqt davomida ko'p narsalarni bilish imkonini yaratadi.Bundan tashqari bu metod o'rganuvchilarning iste'dodini aniqlashga ham yordam beradi.Psixologlarning fikricha,bola ko'rish orqali 75 % narsalarning nima ekanligini tushunib yetadi,bu statistika albatta sog'lom bolalar uchun.Biroq, bu darslikda nuqtalar orqali rasm chizish san'atini ham kiritmoqchimiz.Rasmlarni sezish orqali tushunish metodini yanada chuqurlashtirishimiz lozim.Ko'zi ojiz bolaning yoshidan kelib chiqqan holda unga bu metod vositasida darajalar orqali zarur bilimni yetkazishimiz mumkin.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Maqsadimiz ko'zi ojizlar o'rtasida ham til o'rganishni soddalashtirish, xalqaro hamda milliy sertifikat olishiga ko'maklashish, ularni ham kelajakda ish bilan ta'minlash. Imkoniyati cheklangan ko'zi ojiz ammo ilm olishni istagan qalblar uchun yaratilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosiga aylandi. Shu bois xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan yetuk mutaxassislari tayyorlash vazifasi ko'ndalang bo'ldi. Ayniqsa, hozirda jahon tiliga aylangan ingliz tiliga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Bu borada Ozbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari togrisida»gi PQ-2117-sonli qaror elon qilinishi katta ahamiyatga ega boldi. Jumladan Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahridagi 59-sonli ko'zi ojiz bolalar maktab internatiga tashrifi davomida ko'tarilgan asosiy muammo: 2009-yildan buyon yangilanmayotgan braille yozuvidagi ayrim o'quv darsliklarini qayta ishslash zarurligi aytilgan edi. Mazkur qaror soha mutaxassislari oldiga qator talablarni qo'ydi. Ana shu talablardan biri yosh ingliz tili ixlosmandlarini zarur o'quv-uslubiy qo'llanmalar va darsliklar bilan taminlashdan iborat. Nashr etilajak kitob ham ana shu talabdan kelib chiqib yaratilgan bo'lib, imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz) bolalarning ingliz tilini puxta o'zlashtirishda yordam berishni ko'zda tutadi. Qo'llanmaning o'ziga xos yutuqlari sifatida quydagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Kitobga turli qiziqarli mashqlarning kiritilganligi o'quvchini tilni oson va puxta o'zlashtirishini ta'minlaydi;
2. Lug'atning Braille yozuvida chop etilishi o'quvchiga so'zlarni o'z qo'li bilan o'qish va to'g'ri yozish, kitobga ilova qilinadigan audio disk orqali oson tinglab tushunishiga yordam beradi.





## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



Hozirda ushbu toifadagi lug'atlarning O'zbekiston sharoitida yetarli emasligi sababli, uni qayta to'ldirish va so'zlarning transkriptsiyasini ham kitobga yozish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Borliq, turfa xil ranglar jilosi, moviy osmon, yuzdag'i tabassumlar yoki ko'z yoshlar - siz bularni

ko'rish orqali his etasiz, ammo oramizda shunday insonlar borki, ular bu tuyg'uni qalblari orqali his qilishadi, sezishadi. Ular shunday buyuk qalb egalaridir. Ko'zi ojiz, ammo ilm olishni istagan qalblar. Zero, bobomiz Abdulqosim az-Zamaxshariy ta'kidlaganidek. "Yoki ilmli bo'l, yoki ilmg'a tayanib ish tutadigan bo'l, loaqlal ilmni tinglab eshitadigan bo'l, ammo to'rtinchichisi bo'lma, chunki bu yo'lda kasodga uchrab halok bo'lasan" Imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar uchun darsliklar chop etish haligacha muammoligicha qolmoqda.

Oldimizdagi yana bir muammo

darsliklar ularning imkoniyatidan kelib chiqqan holda chop etilayabdimi? Ularni qiziqtira olish darajasidami? Misol uchun ingliz tilini o'rgatish metodikasini olib qaraydigan bo'lsak, birinchi navbatda biz andoza olayotgan darsliklarning ko'p qismi kiril alifbosiga asoslangan bo'lib, uni Brail tilida o'rganish ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ko'zi ojizlarning til o'rganishdagi jarayonini olib qaraydigan bo'sak, yurtimizda ular uchun umumiylit kitoblar yo'qligi, lug'at kitoblarning mukammal emasligi ularning tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndirmoqda. Ilg'or texnologiyalar ular uchun yangi imkoniyatlar taklif qilmoqda. Yurtimizda imkoniyati cheklangan insonlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasiga ko'ra berishga qaratilgan davlat va jamoat tuzilmalari faoliyat yuritmoqda. Nogironligi mavjud imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus matab internatlari tashkil etilgan. Ulardan 12 tasida 3 ming nafardan ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchilar tahsil oladi. Bunday maktablarning faoliyat yuritishi nogironlarning tarbiyasi, umumta'lim va kasb-hunarga o'rgatish, keyinchalik esa ularning ishga joylashishiga ko'mak beradi. Ma'lum bo'lishicha, ko'zi ojizlarlar uchun maxsus darsliklar bilan ta'minlaydigan bosmaxonalar moddiy-texnik bazasi



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

eskirgan, binosi 1967- yilda qurilgan. Undagi uskunalar o'tgan asrning 60-80 - yillaridan beri ishlab kelmoqda.

Imkoniyatlari cheklangani bois maxsus alifbodagi 48 turdag'i darsliklarga ehtiyoj bo'lgan hold 18 tur darsliklarga chop etilmoqda. 2020- yilning dekabrida O'zbekistonda "Ko'ngil ko'zi" loyihasi doirasida maktab internatlarining

tarbiyalanuvchilari maxsus tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Loyiha doirasida Braille shriftida darsliklar nashr etish yo'lga qo'yildi, ko'zi ojiz va zaif

ko'ruchchi bolalar ehtiyojlariga ixtisoslashtirilgan kompyuter markazi yaratildi, barcha maktab - internatlarining texnik bazasi rivojlantirildi va qo'yilgan maqsadga erishish uchun boshqa kichik loyihalar amalga oshirildi. Biroq hali ham darsliklar mavzusida kamchiliklar bor. Shu sababli xalq ta'limida 2020-2025 - yillarda ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi. Bu esa alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarning ta'lim olishini ancha yengillashtirdi. Ko'zi ojizlarning chet tillarini puxta o'rganish uchun darsliklarni yangicha metodlardan foydalanib yaratishimiz lozim. Biz mavjud muammoning yechimi sifatida ingliz tilining boshlang'ich intermedia darsliklarini ishlab chiqish ustida ish olib bormoqdamiz. Bu darslikning boshqalardan farqi nimada? Birinchidan, darslik ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismi lug'at kitobi va so'zlashuv kitobidan iborat. Bundan tashqari kitobning disk hamda dastur ko'rinishi mavjud. Biz kitobni "Ilm bu -nur" deb nomlaganimiz bezizga emas. Bilim olishni istagan qalblarga ilm nuri ila kirishni maqsad qildik. Unda butunjahonda ommalashib borayotgan metodlardan biri "minimonika" metodidan foydalanilgan. Lug'at kitobi 800 ta so'zni o'z ichiga oladi. Bu ularning fiziologik holatidan kelib chiqqan holda yaratilgan bo'lib, bu kitobdan tez va oson so'zlashishni o'rganishlari mumkin. Yana bir qulaylik tomoni u Braille ingliz, hamda o'zbek tillarida berib boriladi. Uning disk va dastur varianti ham mavjud bo'lib, hozirgi kunda ular ustida ishlanmoqda. Minimonika metodi bolani o'ylashga, erkin fikrlashga undovchi metod bo'lib, boshqa metodlardan farqi

### Lug'atning kitob va audio ko'rinishi





## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- bola uchun kam vaqt davomida ko'p narsalarni bilish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari bu metod o'rganuvchilarning iste'dodini aniqlashga ham yordam beradi. Rasmlarni sezish orqali tushunish metodini yanada chuqurlashtirishimiz lozim. Ko'zi ojiz bolaning yoshidan kelib chiqqan holda unga bu metod vositasida darajalar orqali zarur bilimni yetkazishimiz mumkin. Maqsadimiz- yurtimizda ko'zi ojiz bolalarning ham til o'rganishini soddalashtirish, ularning til bilish bo'yicha xalqaro va milliy sertifikatlarni qo'lga kiritishga ko'maklashish, kelgusida ularni ish bilan ta'minlashdan iborat. Mamlakatimizda bunday darsliklar sonini ko'paytirish va ularning kiyingi darajalarini ishlab chiqish lozim. Negaki, yurtimizda bunday darsliklarga ehtiyoj bor. Ko'zi ojizlar ingliz tilini o'rganishda asosan writing va reading qismlarida qiynalishadi. Buning asosiy sabablaridan bittasi - ular ko'p muddat ishlashga fiziologik jihatdan moslashmaganligi bo'lsa, yana bir sabab- darsliklar va yetarli kadrlar yetishmaslidir. O'zbekistonda umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida o'zbek imo-ishora tili va Brail alifbosi o'rgatish bo'yicha qaror qabul qilindi. Qayd etilishicha, 2023- yil 1 - yanvardan boshlab, umumiyligi o'rta ta'lim muassasalari hamda "Ishga marhamat" monomarkazlarida o'zbek imo-ishora va Brail alifbosini o'rgatish bo'yicha maxsus o'quv kurslari tashkil etiladi. Maxsus o'quv kurslarida ko'rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslar hamda ushbu toifadagi voyaga yetmagan bolalarning ota- onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bepul, qolgan shaxslar pullik asosida o'qitilishi belgilab olindi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

- 1.<https://www.gazeta.uz/oz/2022/02/10/president>.
- 2.kun.uz.
- 3.Imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz) bolalarning ingliz tili darsliklarini yaratishdagi muammolar (S.Beg'amova,Z.Allayarova) maqola "Ilmiy tadqiqotchilikning o'rni:Muammo va yechimlari "20-23